



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI
ZARAFSHON SHAHAR
HOKIMI**

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko‘chasi 1, tel.: (79) 573-14-19, e-mail: zarafshon.sh@exat.uz, zarafshon@nv.uz

5 fevral 2025 yil.

01-11/93-son

**Zarafshon shahar
adliya bo‘limi boshlig‘i
O. Nosirovga**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” 2022-yil 8-avgustdagi 788-son Qonunining 13-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisi tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etishga, ularning muassisi (ishtirokchisi) bo‘lishga, tadbirkorlik faoliyati subyektida tashkiliy-boshqaruv, ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarishga haqli emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib Sizdan, Zarafshon shahar hokimligi xodimlari (1-ilova) tomonidan tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etilganligi, ularning muassisi (ishtirokchisi) bo‘lganligi yoki tadbirkorlik faoliyati subyektida tashkiliy-boshqaruv, ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarayotganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni 2-ilovadagi jadval asosida taqdim etishingiz so‘raladi.

Ilovalar ____ varaqda.

Hokim



N.I. Rahmanov

Ijrochi:Sh. Ne'matov
Tel:79- 573-14-01

